

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIGI – OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING MUHIM SHAKLI

Xayrixon Ashiralievna Raxmatova


Namangan DU, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" kafedrası dotsenti, p.f.n.

Yunusaliyeva Guljahon Araboy qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

OTM faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri – talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish sanaladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar avvaldan puxta rejalashtirilganligi, tizimli va izchil tashkil etilganligi sababli kutilgan natija qo'lga kiritiladi. Tarbiya jarayonining samarali bo'lishida ma'naviy-ma'rifiy jarayon yo'nalishini to'g'ri tanlash, mazmunini asoslash, tarkibiy tuzilmasi hamda amaliy-metodik asoslarini oqilona belgilay olish muhim ahamiyatga ega. Zero, ana shu omillar inobatga olinganda ma'naviy-ma'rifiy jarayonning samarali kechishi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida oilalarda tinchlik, osoyishtalik bo'lishiga, sog'lom psixologik muhitning shakllanishiga olib keladi.

Mahallalardagi oilalarning mustahkam bo'lishi, yoshlar tarbiyasini tashkil etishda OTM ishonchli hamkor bo'la oladi va bu hamkorlik mahallalardagi oilalarning mustahkamligi, tinchligi va osoyishtaligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi hamkorlik quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:



OTM va mahalla hamkorligining asosiy yo'nalishlari

1. Mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) faoliyatini zarur adabiyotlar (badiiy, o'quv va maxsus), ko'rgazmali vositalar, metodik materiallar bilan ta'minlashga ko'maklashish. Bu borada OTMning ijtimoiy va gumanitar kafedralari MFYning rahbarlari va faollariga yaqindan yordam beradi. OTMning ijtimoiy va gumanitar kafedralari MFYda uch turdagi adabiyotlar: badiiy asarlar; yoshlarni kasbga yo'naltirish yoki ularni kasbiy qayta tayyorlashga oid adabiyotlar; oilalarni mustahkamlash, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishga doir adabiyotlardan iborat kichik fondni shakllantirishga ko'maklashadi.

OTMning "Amaliy san'at", "Dizayn" kafedralari ko'rgazmali vositalar – plakatlari, bannerlar, pannolar, kollajlar, bukletlar, yozuvli taxtalar va boshqalarni tayyorlashda amaliyo yordam ko'rsatadi.

2. Kichik ijtimoiy-pedagogik, psixologik tadqiqotni amalga oshirish orqali mahalla yoshlarining muammolarini aniqlash. Bunda tashxislovchi metodlardan foydalanish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi. "Anketa (ijtimoiy so'rov), suhbat, test, intervyu, pedagogik kuzatish, pedagogik hujjatlar (dasturlar, o'quv-metodik majmualar, kasbiy faoliyat portfoliolari)ni o'rganish" [2, 17-b.], ekspert baholash, natijalarni statistik tahlil qilish kabi tashxislovchi metodlari asosida yoshlar muammolari aniqlanadi. OTMning mutaxassis-pedagoglari (sotsiolog, psixolog, pedagog, iqtisodchi) MFY rahbarlari va faollariga tashxislashda foydalaniladigan metodik ishlanmalarni tayyorlashga yordam beradi.

Pedagoglarning hamkorlik jarayonidagi vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi: anketa (ijtimoiy so'rov) varaqalarini tayyorlash; suhbat, test va intervyular uchun savollar turkumini ishlab chiqish; pedagogik kuzatish bosqichlarini belgilash hamda har bir bosqichda bajarilishi zarur bo'lgan aniq vazifalar doirasini aniqlash; ekspert baholash uchun ekspertiza mezonlarini belgilash va dalolatnomani tayyorlash; natijalarni statistik tahlil qilish asosida hisobotlarning ishonchli bo'lishiga erishish.

3. Mahalla yoshlar o'rtasida turli mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish. OTMning mutaxassis-pedagoglari (sotsiolog, psixolog, pedagog, iqtisodchi) MFY rahbarlari va faollariga tadbirni tashkil etish hamda o'tkazishda tashkiliy, nazariy va amaliy jihatdan ko'maklashadi.

Pedagoglari bu jarayonda quyidagi vazifalarni hal qiladi: tadbirning samarali shaklini belgilash; tadbirni tashkil qilishda qo'llaniladigan metod, vosita va texnologiyalarni tanlash; tadbirlar stsenariysi (loyihasi)ni tayyorlash; tadbirga uni o'tkazuvchi moderatorlarni taklif qilish, tadbir samaradorligini tahlil, shuningdek, u yuzasidan qarorni qabul qilish.

4. Mahalla yoshlarini kasbga yo'naltirish va kasbga qayta tayyorlashda amaliy-metodik yordam ko'rsatish. OTMning mutaxassis-pedagoglari (sotsiolog, psixolog, pedagog, iqtisodchi) MFY rahbarlari va faollariga mahalla yoshlarini kasbga yo'naltirish va kasbga qayta tayyorlashda ham amaliy-metodik yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Xususan, pedagogika yo'nalishida faoliyat olib boradigan OTMning tarkibida bo'lgan "Iqtisodiyot", "Texnologiya", "Dizayn", "Informatika

asoslari”, “Axborot texnologiyalari” kabi kafedralarining jamoasi mahalla yoshlarini kichik startaplarning biznes-rejasini ishlab chiqish; kichik va oilaviy tadbirkorlik uchun kredit mablag’larini olish jarayonini tashkil qilish; maishiy-texnika jihozlari, mobil qurilmalari, yumshoq va qattiq mebellarni ta’mirlash; ikkilamchi materiallardan kreativ mahsulotlarni tayyorlash; lanshaft dizaynini yaratish; kompyuterda loyihalash yoki kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga oid bilim va malakalarni o’zlashtirishda MFY rahbarlari va faollariga ko’maklashadi.


5. Mahalla ijtimoiy boshqaruvining samarali tashkil etilishini

ta’minlash hamda uning yuzasidan nazorat (kuzatuv)ni olib borish. OTMning “Davlat va huquq asoslari”, “Davlat va jamiyat qurilishi” kafedralarining pedagoglari mahalla ijtimoiy boshqaruvining samarali tashkil etilishini ta’minlash va uning yuzasidan nazorat (kuzatuv)ni olib borishda MFY rahbarlari va faollariga yaqindan yordam beradi.

Har qanday boshqaruv negizida muayyan faoliyatni tashkil qilishga ko’maklashish yotadi. SHu jihatdan olganda ijtimoiy faoliyatning o’ziga xos ko’rinishi bo’lgan boshqaruv mahalla, undagi oilalar hayotini tartibga solish, “istalgan murakkab ijtimoiy tuzumning butunligini ta’minlash, uning oqilona faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishini qo’llab-quvvatlashga yo’naltiriladi” [1, s. 6].

Bu jarayonda ushbu kafedralarning asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi: mavjud boshqaruv tizimi va mexanizmlarining axborotlashgan jamiyat talablari hamda ehtiyojlariga mosligini o’rganish; bordi-yu, mavjud boshqaruv tizimi va mexanizmlarining axborotlashgan jamiyat talablari hamda ehtiyojlariga mos emasligi aniqlansa, u holda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish choralarini belgilash; MFY boshqaruv organidagi har bir xodimning xizmat kompetentsiyalariga egaligini mustaqil tahlil qilish va baholash, shuningdek, o’z-o’zini rivojlantirish yuzasidan amaliy tavsiyalar berish; mahalla faoliyatini boshqarishning yaqin (joriy) va uzoq (istiqbolli) maqsadlarini belgilash; mahalla faoliyatini boshqarishning puxta asoslangan strategik rejasini ishlab chiqish; mahalla faoliyatini boshqarishning mavjud holati yuzasidan aholiga vaqti-vaqti bilan hisobot berib turish; mahalla faoliyatini boshqarish yuzasidan jamoatchilik nazoratini yo’lga qo’yish; jamoatchilik nazorati asosida mahalla faoliyatini boshqarish yuzasidan tayyorlangan hisobotlarning haqqoniyligi va dalillarning to’g’riligini o’rganish; jamoatchilik nazorati natijalarini MFY rahbarlari va faollari, shuningdek, mahalla aholisi ishtirokida muhokama qilish; mahalla faoliyatini boshqarishda aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, shuningdek, yutuqlarni boyitish choralarini belgilash; mahalla faoliyatini boshqarish borasidagi mahalliy tajribalarni o’rganish, umumlashtirish va ommalashtirish.

SHunday qilib, OTM va mahallalar o’rtasidagi o’zaro hamkorlik natijasida oilalarning mustahkam bo’lishiga erishish mumkin. OTM va mahallalar o’rtasidagi o’zaro hamkorlik doirasida aniq vazifalar hal qilinadiki, buning oqibatida MFY faoliyatining samaradorligiga erishish bilan birga oilalarning mustahkamligi ta’minlanadi, yoshlar tarbiyasida ijobiy natijalar qo’lga kiritiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gomola A.I., Gomola I.A. Sotsial'noe upravlenie / Uchebnik dlya stud.sred.prof. ucheb.zavedeniy. – M.: Izd.tsentr “Akademiya”. 2009. – S. 6.
2. SHarshakova L.B. Pedagogicheskaya diagnostika obrazovatel'nogo protsessa / Met. posobie dlya pedagogov dopol. obrazovaniya. – SPb.: GBOU DOD Dvorets detskogo (yunosheskogo) tvorchestva “U Voznesenskogo mosta”, 2013. – S. 17.

